

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA "ONA" OBRAZINING BADIY TALQINI

Ravshanova Madina Zafarbek qizi

University of Business and Science

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21900069>

Annotatsiya: Ushbu maqola O'tkir Hoshimov asarlarida ona obrazining tahliliga bag'ishlanadi. Yozuvchi ona obrazini o'zbek xalqining urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini va oilaviy an'analari asosida talqin qiladi. Ushbu asarlarda ona obrazi orqali insoniylik, mehr-muhabbat, fidoyilik, va oila mas'uliyati singari jihatlar yorqin aks ettirilgan. Tadqiqotda yozuvchi asarlarida ona obrazining hissiy va ramziy ma'nosi tahlil qilinadi, shuningdek, uning ijtimoiy va madaniy ahamiyati o'rganiladi. Asosiy diqqat ona timsolining yozuvchi tomonidan qay tarzda ifoda etilganligi, o'quvchi qalbida qanday ta'sir uyg'otishi hamda milliy madaniyatdagi o'rniga qaratiladi.

Kalit so'zlar: O'tkir Hoshimov, ona obrazi, milliy qadriyatlar, oila an'analari, o'zbek adabiyoti, insoniylik, mehr-muhabbat, fidoyilik, ramziy tahlil.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the image of the mother in the works of Otkir Hoshimov. The writer interprets the image of the mother based on the customs, national values, and family traditions of the Uzbek people. In these works, aspects such as humanity, love, selflessness, and family responsibility are vividly reflected through the image of the mother. The study analyzes the emotional and symbolic meaning of the image of the mother in the writer's works, as well as its social and cultural significance. The main attention is paid to how the image of the mother is expressed by the writer, what effect it has on the reader's heart, and its place in national culture.

Keywords: Otkir Hoshimov, image of the mother, national values, family traditions, Uzbek literature, humanity, love, selflessness, symbolic analysis.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу образа матери в произведениях Откира Гошимова. Автор интерпретирует образ матери, исходя из обычаев, национальных ценностей и семейных традиций узбекского народа. В этих произведениях такие аспекты, как гуманность, любовь, самоотверженность и семейная ответственность, ярко отражены через образ матери. В исследовании анализируется эмоциональное и символическое значение образа матери в произведениях писателя, а также его социально-культурное значение. Основное внимание уделяется тому, как образ матери выражен автором, какое воздействие он оказывает на сердце читателя и его место в национальной культуре.

Ключевые слова: Откир Гошимов, образ матери, национальные ценности, семейные традиции, узбекская литература, гуманность, любовь, самоотверженность, символический анализ.

Dunyodagi barcha millat-elat va xalqlarning muqaddas va mo'tabar siymosi bu onadir. Ona siymosi barcha xalqlarning shakllanishida, o'ziga xos betakror xususiyatlarini rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Ona obrazi barcha xalqlarda fe'l-atvori, ichki va tashqi dunyosi, o'ziga xos fazilatlarini va portreti bilan farqlanib turadi. O'zbek xalqiga mansub ona

siyosining badiiy adabiyotda tasvirlanishi, bu obrazni badiiy yoritishda o'zgacha uslub va mahorat egasi O'tkir Hoshimovdir. Ona obrazini yaratilishi va yoritilishi uning mahoratini ko'rsatuvchi yetakchi omillardan biridir. Uning kitobxonlarga juda manzur bo'lgan ko'plab asarlarida ona obrazi alohida ahamiyatga ega. Misol uchun, "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari", "Tushda kechgan umrlar", "Urushning so'nggi qurboni", "Odam ovozi", "Nur borki, soya bor", "O'zbeklar" badiiy asarlaridir. Dunyoning ishlari asari yozuvchi o'zi aytgandek asar barcha onalar uchundir. Kitobxon ushbu asarni o'qir ekan beixtiyor o'zining bolaligi va bolalik xotirasida o'zgacha o'rin tutgan onajonini eslaydi. Ushbu asar o'tgan asrning jafokash, mehnatsevar, mushfiq va munis ayolini go'zal tarzda ifodalaydi. Uning har bir hikoyasi har qanday bag'ritosh insonni ham ko'nglini yumshatib, ezgu hislar va xotiralarga to'ldiradi. "Asarning yana e'tiborli jihati shundaki, yozuvchi odamlarni onaga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib kimligini qanday insonligini ko'rsatadi. Qissaning uchinchi yo'nalishi asar qahramoni "Meni"dagi evolyutsiyasi tashkil etadi. Bu "Men" dunyoni, asosan, ona timsoli orqali idrok etib ulg'aydi, neki voqea-hodisa bo'lsa ona konteksida qabul qiladi va shu kontekstdan kelib chiqib ularning bahosini beradi. Do'st xiyonatiga uchragan qahramonning iztirobga tushganini eslaylik. Vaziyat shu qadar og'irki, azbaroyi osmondagi oy ham xoindek, uning nurlari xiradek, yulduzlar xoinlarcha ko'z qisayotgandek, shamol xoinona qiqirlayotgandek tuyuladi. Bir so'z bilan aytganda, qahramon uchun dunyo zimiston uning nazarida bu yorug' olamda yaxshilik yo yoqimli narsaning o'zi qolmagan. Mana shunday depressiv holatdan uni faqat onadagi bag'rikenglik, kechirimlilik xalos etishi mumkin. Onadagi kechirimlilik, bag'rikenglik o'g'ilning mushkulini osonlashtiradi. "Dunyoning ishlari"da kashf qilingan ona obrazi O'tkir Hoshimovning keyingi asarlarida ham boshqa zamon va boshqa makonlarda o'quvchining ko'z o'ngida gavdalanadi". Ushbu qissa ijodkorning ona obrazini yaratishdagi eng yuqori cho'qqisi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. So'zimiz dalili deb Said Ahmadning "Ijod va jasorat" maqolasidagi ushbu fikrlarni keltirsak bo'ladi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlrimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi". Shuningdek, "Tushda kechgan umrlar" asaridagi Qurbonoy xola yuqorida keltirilgan qissadagi oyi obrazini mantiqiy davomidir.

Hoshimov ijodidagi ona obrazini chuqur tahlil qilib, uni milliy qadriyatlar va insoniy fazilatlar timsoli sifatida ochib berishdir.

Asosiy qism. Ona obrazining milliy qadriyatlar asosida yaratilishi.

O'tkir Hoshimov asarlarida ona obrazi xalqning milliy qadriyatlari va urf-odatlariga chuqur bog'langan holda tasvirlanadi. Bu obraz o'zbek xalqining mehr-muhabbat, sabr-toqat, fidoyilik kabi fazilatlarini o'zida mujassam etadi. Misol uchun, "Ikki eshik orasi" asarida ona faqat farzandlarini o'z bag'rida tarbiyalaydigan, ularga hayotiy saboqlar beradigan kishi emas, balki ularga fidoyilik bilan yondashuvchi, oila baxti uchun har qanday qiyinchilikka bardosh beradigan ramz sifatida ifodalanadi. Hoshimovning ona obrazida ona timsoli xalqimizning eng yaxshi fazilatlarini bilan uyg'unlashib, jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini kuchaytiradi.

Ona obrazining hissiy va ramziy talqini Ona obrazi Hoshimov asarlarida inson ruhiyatining eng nozik jihatlarini ifodalash vositasi sifatida ham ishlatiladi. Bu obraz orqali muallif o'z o'quvchilariga insoniy fazilatlarni, oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini chuqurroq

anglatadi. Hoshimovning “Odamlar nima deyishadi?” asarida ona bolalariga bo’lgan samimiy muhabbatini, ularning baxti va sog’lig’i uchun qilgan fidoyiliklarini namoyon qiladi. Ona o’z bolalarini qo’llab-quvvatlashda, ularning har qanday xatolarini kechirishda katta bag’rikenglik ko’rsatadi. Ona obrazining hissiy talqini orqali Hoshimov insonning ruhiy dunyosini, uning yuksak axloqiy fazilatlarini ko’rsatadi.

Ona obrazining ijtimoiy va madaniy ahamiyati. Hoshimov asarlaridagi ona obrazi jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarni ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi. Bu obraz o’zbek madaniyatida oilaning markaziy o’rnini, onalarning oilada va jamiyatda tutgan muhim rolini ifodalaydi. Hoshimov ona obrazini yaratishda jamiyatning ona va farzandlar o’rtasidagi munosabatlarga bo’lgan qarashini, ularning hayotiy tajribalarini hisobga oladi. Bu obraz orqali Hoshimov o’zbek oilasidagi an’anaviy qadriyatlarning yosh avlod uchun naqadar muhim ekanligini va onaning ular tarbiyasidagi beqiyos rolini ko’rsatadi.

Ona obrazi va insoniylik fazilatlarini Hoshimov asarlaridagi ona obrazi insoniylik fazilatlarini, ya’ni mehr-muhabbat, bag’rikenglik, sabr-toqat, va kechirimlilik kabi fazilatlar bilan ham uyg’unlashgan. Ona obrazida muallif oilaviy qadriyatlarni, insoniylikning yuksak qirralarini aks ettiradi. Masalan, ona bolalariga hayotda insoniylik fazilatlarini tushuntirib beradi, ularni axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, psixolog V.Vagnerning fikricha, “Ijtimoiy psixologik jihatdan onalik tuyg’usi insonning boshqa hayotiy talablari ya’ni, yashash, ovqatlanish bilan bir qatorda barobar turuvchi xislatdir”. Shunday ekan onalik tuyg’usi dunyodagi eng oliy, beminnat va bebaho tuyg’udir. Adibning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridagi “Eng oliy tuyg’u” parchasida quyidagicha keltiriladi: “Bola emizib o’tirgan ayolga zimdan razm soling... Go’dagiga termulib bola emizayotgan onaning ko’zlariga sinchikla-a-ab tikiling... Eng oliy tuyg’u nimaligini shunda ko’rasiz!” Haqiqatdan ham dunyodagi eng oliy va bebaho tuyg’u bu onaning bolasiga bo’lgan samimiy va be’minnat mehr-muhabbati hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Khamraev, Shukhrat. O’zbek adabiyotida ona obrazi: tarixi va rivojlanishi. Tashkent: O’zbekiston, 2012.
2. Aximov, Alisher. O’tkir Hoshimov asarlarida badiiy obrazlar. Tashkent: O’zbekiston milliy universiteti, 2015.
3. Hujjatova, Dilshoda. Ona va farzand munosabatlari O’zbek adabiyotida. Tashkent: O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2018.
4. Abdullaeva, Nilufar. Ona obrazining ma’naviy ahamiyati O’zbek adabiyotida. Tashkent: O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2020.9
5. Kadyrova, Shodiyakhon. O’tkir Hoshimov va zamonaviy O’zbek adabiyoti. Tashkent: O’zbekiston Noshirlar uyushmasi, 2021.
6. Rahmonov, Abdurauf. Milliy qadriyatlar va badiiy obrazlar O’zbek adabiyotida. Tashkent: O’zbekiston milliy universiteti, 2023